

AZAMAT QO'CHQAROV RAMZIY ASARLARINING SUFIZM BILAN ALOQASI

Olimjonova Maftuna Farhodjon qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

maftuna_olimjonova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan viloyati yosh avlod rassomlaridan biri bo'lgan Azamat Qo'chqarovning ijodiy asarlari tahlil qilinadi. Maqolada dastlabki yillarda yaratilgan realistik hamda keyingi yillardagi sufiylik falsafasi mujassam bo'lgan kartinalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Azamat Qo'chqarov, realizm, sufizm, kartina, "Chorvoq manzarasi", "Between hope and fear", "Bride", "Layli va majnun", "Yosh Kamoliddin Behzod".

Annotation: This article analyzes the creative works of Azamat Kuchkarov, one of the young generation of artists of the Namangan region. The article studies his realistic paintings created in the early years and his later paintings embodying the philosophy of Sufism.

Keywords: Azamat Kuchkarov, realism, Sufism, painting, "Chorvoq manzarasi", "Between hope and fear", "Bride", "Layli and Majnun", "Yosh Kamoliddin Behzod".

Kirish.

Mustaqillik yillarida Namangangan viloyati yangi avlod rassomlari ijodida o'ziga xos milliylikni izlash tamoyillari kuzatildi. Bu tamoyillar dastgohli rangtasvirda romantik realizm, qishloq hayoti va maishiy manzaralar, simvolik-falsafiy izlanishlar, mahalliy motivlarda o'zkasini topdi. Ular orasida Azamat Qo'chqarov ijodi o'ziga xos falsafiy qarashlari bilan ajralib turadi.

Asosiy qism.

Yangi avlod rassomlari ichida dastgohli rangtasvir san'atida sermaxsul ijod qilib kelayotgan **Azamat Qo'chqarov** ijodining dastlabki yillarida milliy me'moriy meros, tabiat manzaralari, natyurmort va gul tasvirlari bir butun badiiy konsepsiya sifatida namoyon bo'ldi. Bu davrda u, realizm an'anasini zamonaviy estetik qarashlar bilan uyg'unlashtiradi ("Sen ham ishon" turkum asarlari, "Olmalar").

Azamat Qo'chqarov ijodida realizm asosiy yo'nalish bo'lsa-da, u milliy an'analar, tarixiy obidalar va tabiat manzaralarini o'ziga xos badiiy til bilan ifodalaydi. Rassom yorug'lik va soya o'yinlariga katta e'tibor berib, ranglarni tabiiy, lekin badiiy kuchaytirish orqali tomoshabinda hissiy javob uyg'otadi. Uning asarlarida nafaqat tasviriy mukammallik, balki ruhiy ta'sirchanlik ham muhim o'rin tutadi ("Al Buxoriy maqbarasi" (2016), "Buxoro" (2016), "Pionlar" (2018), "Chorvoq manzarasi").

Rassom qalamiga mansub "Chorvoq manzarasi" (2017) asarida bahoriy yashillik, gullagan daraxtlar va tog'lar fonida joylashgan suv havzasi uyg'unlikda tasvirlangan. Rassom pastel va yorqin ranglarni uyg'un ishlatib, osoyishtalik va tabiat go'zalligini aks ettiradi. Kompozitsiya chuqurligi tomoshabinga manzara ichiga kirib borayotgandek taassurot uyg'otadi.



“Chorvoq manzarasi”

“**Natyurmort**” kartinasida milliy bezakli gilam va kulolchilik buyumlari bilan kompozitsiya yaratilgan. Rassom bu asarda o‘zbek xonadonining milliy ruhini va farovon hayot falsafasini ifoda etadi. Ranglarning to‘yinganligi va naqshlar bilan mevalar uyg‘unligi dekorativlik va realizmni birlashtiradi.



“Natymort”

Azamat Qo‘chqarov dastlabki asarlarida milliylik va zamonaviy realizm uyg‘unligining yorqin namunasi sifatida o‘zbek me‘morchiligi, tabiat manzaralari va milliy madaniyat unsurlarini badiiy yuksaklikda tasvirlab, tomoshabinga estetik zavq va ruhiy yuksalish bag‘ishlaydi. Keyingi yillarda esa u o‘z ijod yo‘lini sufizm falsafasining asosiy g‘oyalari — ichki poklanish,



ilohiy ishq, ruhiy erkinlik va tabiat bilan uyg‘unlik konsepsiyalari bilan chambarchas bog‘langan (“Between Hope and Fear”, “Bride”, “Layli va Majnun” diptixi, “On the Terrace”).

Azamat Qo‘chqarovning “Between Hope and Fear” asarida inson figurasi qorong‘i va yorug‘ ranglarning keskin kontrasti ichida tasvirlangan. Yopiq ko‘zlar, yuz ifodalaridagi ichki taranglik **ruhiy izzitirob va orzu-umidning** dialektikasini ochadi.

Bu holat sufiylikdagi **“mujahada” — nafs bilan kurash** jarayonini eslatadi.

Akbar Hakimov ta’riflaganidek, “sufiy

estetikasi zulmatni yengib, ilohiy nur sari intilish jarayonini badiiy timsollar orqali ifodalaydi”.¹ Asarda alohida ahamiyatga ega detallar — **qushlar obrazi**, ayniqsa hudhud timsolidir. Qur’oni Karimning Naml surasida hudhud qushi Sulaymon payg’ambarga yo’l ko’rsatuvchi sifatida tilga olinadi.² Shuningdek, Farididdin Attorning mashhur “Mantiq ut-tayr” asarida hudhud barcha qushlarga pir va yo’lboshchi sifatida talqin qilinadi.³ Qo’chqarovning asaridagi hudhud ham insonni zulmatdan nurga eltuvchi ruhiy sayohat ramzi sifatida ishlatilgan. Bu ramzni sufiyona talqinda izohlash uchun Annemarie Schimmelning fikri ham muhim: u “hudhud qushi islomiy tasavvufda donishmandlik va ruhiy yo’l ko’rsatish timsolidir” deya qayd etadi.⁴ William Chittick ham hudhudni “qalbni ilohiy haqiqat sari yetaklovchi ichki ovoz” sifatida talqin qiladi.⁵

Shunday qilib, **“Between Hope and Fear”** — nafaqat insonning ruhiy iztiroblari, balki qush (hudhud) obrazi orqali **yo’l ko’rsatish, haqiqat sari sayr, umid va qo’rquvning tasavvufiy birligini**, insonning ruhiy yo’lini va izlanish jarayonini ifodalaydi.

Ramziy portretlarda (xususan, “Between Hope and Fear”, “Layli va Majnun” diptixida) ko’zlari yumuq obrazlar taslim bo’lish, dunyoviy chalg’itkichlardan voz kechish va ichki dunyoga sho’ng’ish holatini aks ettiradi. Bu sufiylarning zikr va tafakkur amaliyotlarida uchraydigan ruhiy holatlarni eslatadi, bunda inson ko’zlarini yummoq orqali tashqi olamdan uzilib, qalbni ilohiy nurga ochadi.

Qo’chqarovning “Layli va Majnun” asari Sharq mumtoz adabiyotining eng mashhur ishqiy rivoyatiga tayanadi. Ammo rassom uni oddiy romantik hikoya sifatida emas, balki **sufiyona ishq falsafasi** sifatida talqin qiladi.

Sufiy adabiyotida Layli va Majnun voqeasi ilohiy ishqning ramzi sifatida keng talqin qilinadi. Majnun obrazi insonning Alloh ishqida dunyodan uzilishi, Layli esa ilohiy jamol timsoli. Qo’chqarov bu diptixida ularni ruhiy uyg’unlikda, lekin iztirob va poklanish jarayonida aks ettiradi.

Layli va Majnun obrazlari asarda bir-biriga intiluvchi, ammo yetolmaydigan ikki ruh sifatida tasvirlangan. Bu, Hakimovning ta’rificha, “tasavvufiy estetika uchun xos bo’lgan paradoks — yaqinlik va uzoqlik, vasl va hijron o’rtasidagi dialektika”.⁶

Tasavvufda “ishq” tushunchasi ikki qismga bo’linadi:

- **Ishqi majoziy** – insonlar o’rtasidagi sevgi;
- **Ishqi haqiqiy** – Allohga bo’lgan ilohiy muhabbat.

Qo’chqarov “Layli va Majnun”da majoziy ishq orqali haqiqiy ishqni ramziy tarzda ko’rsatadi. Bu Attorning “Mantiq ut-tayr” asaridagi qushlarning sayohati kabi: ular majoziy sayr orqali Haqiqatga yetadilar. Navoiy ham “Lison ut-Tayr”da bu g’oyani davom ettiradi.

1 Hakimov, A. *Islom san’ati O’zbekistonda: falsafa va poetika*. Toshkent: Zilol buloq, 2022. – 145-bet

2 Qur’oni Karim, *Naml surasi*, 27:20–28.

3 Farididdin Attor. *Mantiq ut-tayr*. Tehron, 2011. – 57–63-betlar

4 Schimmel, A. *Mystical Dimensions of Islam*. Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1975. – p. 302

5 Chittick, W. *Sufism: A Short Introduction*. Oxford: Oneworld, 2000. – p. 55.

6 Hakimov, A. *Islom san’ati O’zbekistonda: falsafa va poetika*. Toshkent: Zilol buloq, 2022. –275-bet.



“Layli va majnun”

Uzum shodasi va barglar sufiylikda hayot sharobining ramzi bo‘lib, bu jismoniy mastlik emas, balki ilohiy ishq mastligini bildiradi. Qo‘chqarov “Bride” va “Layli va Majnun” asarlarida uzum yaproqlari bilan o‘ralgan boshlar orqali insonning ilohiy muhabbat girdobiga tushishini, ruhiy yangilanishini tasvirlaydi.

Sharq tasavvufida uzum va undan olinadigan sharob **ilohiy ishq** ramzi sifatida keng ishlatiladi. Rumiyning “Masnaviy”sida, shuningdek, Hofiz va Jomiy g‘azallarida sharob – Allohning ilohiy muhabbatidan mast bo‘lish ramzi sifatida talqin qilinadi.

Annemarie Schimmel yozadi: “Sufiyona adabiyotda sharob ichish — bu tashqi mastlik emas, balki Haqiqatning zavqidan mast bo‘lish, ilohiy ishqning kuchini his etishdir”.⁷

Qo‘chqarovning fonida berilgan **uzum shodasi** — Layli va Majnun orasidagi muhabbatning **ilohiy bosqichga ko‘tarilganidan** dalolat beradi. Agar Layli va Majnun o‘zlari insoniy sevgi (ishqi majoziy)ni bildirs, uzum esa bu sevgi **ishqi haqiqiyga — ilohiy muhabbatga aylanganining** ramzidir. Hakimov ham “islomiy san’atda meva obrazlari ko‘pincha hayotiylik va baraka timsoli bo‘lsa, tasavvufiy talqinda ular ilohiy haqiqatning botiniy ifodasiga aylanadi” deya qayd etadi.⁸

Demak, “Layli va Majnun” diptixidagi **uzum tasviri** oddiy tabiat detali emas, balki **ilohiy mastlik** ramzi hamda ishqiy munosabatning insoniy darajadan **sufiyona darajaga** ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Asarning ichki ma’nosini yanada chuqurlashtirib, uni sof romantik hikoyadan falsafiy-mistik darajaga olib chiqadi.

Azamat Qo‘chqarovning ramziy asarlarida sufiylik falsafasi sezilarli darajada mujassam: hudhud va qush obrazlari yo‘l ko‘rsatish va ruhiy sayohatni, yopiq ko‘zlar ichki tafakkurni, uzum va barglar ilohiy ishqni, Layli va Majnun esa poklanish va jamol ishqini ifodalaydi. Rassom bu ramzlarni milliy san’at an’analar bilan uyg‘unlashtirib, o‘ziga xos zamonaviy sufiyona badiiy til yaratgan.

Azamat Qo‘chqarovning “Bride” (“Kelin”) asari uning ijodidagi ramziy-estetik qatlamni yorqin ko‘rsatib beruvchi namunalardan biridir. Bu asar, bir tomondan, **milliylikni izlash tamoyillari**, ikkinchi tomondan esa **sufiyona va ramziy poetikani** mujassamlashtiradi.

⁷ Schimmel, A. *Mystical Dimensions of Islam*. Chapel Hill: UNC Press, 1975. – p. 291.

⁸ Hakimov, A. *Islom san’ati O‘zbekistonda: falsafa va poetika*. Toshkent: Zilol buloq, 2022. – 223-bet.

Markazda tasvirlangan kelin obrazida rassom milliy o'ziga xoslikni alohida ta'kidlagan: u **o'zbek milliy libosi** va zargarlik buyumlari bilan bezatilgan. Libosning dekorativ naqshlari fon bilan uyg'unlashib, obrazni umumlashtirilgan, ramziy darajaga ko'taradi. Kelin obrazining jiddiy va sokin nigohi esa sharqona an'anadagi kelinchak timsolini ramziy va ruhiy yuksaklikda ko'rsatadi.

Fonida tasvirlangan **uzum shoxlari va mevalari** asarning asosiy ramziy qatlamini tashkil etadi. Qo'chqarov asarda **dekorativ-ramziy uslubga** murojaat qiladi:

- Rang palitrasi sokin, ammo chuqur semantik qatlamni ochib beradi. Ko'k va yashil tuslar sof poklik va hayotiylikni anglatadi.
- Kompozitsiya markazida turgan kelin figuraning monumental berilishi esa **romantik realizmning** milliy talqini sifatida baholanishi mumkin.

“Bride” asarida rassom milliylikni ikki qatlamda izlaydi:

1. **Material qatlam** — milliy libos, milliy zargarlik an'analari va naqshlar orqali.
2. **Ramziy qatlam** — uzum timsoli, sharqona kelinchak obrazining ilohiylashtirilishi orqali.

Bu ikki qatlam uyg'unlashib, Qo'chqarov ijodida milliylikni faqat tashqi atributlarda emas, balki **falsafiy va ramziy qatlamlarda ham izlash** tamoyiliga asoslanadi.

Azamat Qo'chqarovning “Bride” asari oddiy kelinchak tasviri emas, balki **milliy libos, uzum ramzi va ruhiy yuksaklik** uyg'unligida milliy qadriyatlarni ilohiy va ramziy darajaga ko'taruvchi falsafiy talqindir. Bu bilan rassom milliy san'atni zamonaviy ramziy-estetik oqimlar bilan uyg'unlashtirgan holda, o'z ijodida **milliylikni izlashning yangi bosqichini** yaratgan.

“On the Terrace” asarida arxitektura elementi insoniyat yaratgan moddiy madaniyatni, qaldirg'och esa ruhiy erkinlik va osmon bilan aloqa ramzini bildiradi. Bu sufiylikdagi zohir (tashqi) va botin (ichki) dunyolar o'rtasidagi muvozanat g'oyasini eslatadi.

“Yosh Kamoliddin Behzod” asarida yosh Kamoliddin Behzod ijodiy izlanishlar davridagi holatda tasvirlangan. Rassomning yonida turgan ayol obrazi esa ilhom manbai, ramziy “Ilhom parisi” sifatida talqin qilinadi. Bu uyg'unlik, bir tomondan, Behzodning insoniy va ruhiy dunyosini ko'rsatadi, ikkinchi tomondan, san'at va go'zallikning abadiy hamrohligini ifodalaydi. Behzod qo'lida mo'yqalam bilan tasvirlangan — bu uning ijodkor sifatidagi asosiy qurolini ko'rsatadi.

Asar dekorativlik va lirizm uyg'unligida ishlangan. Rassomning asarlaridagi umumiy jihati bo'lgan ko'k va yashil tuslar Behzodning **ruhiy pokligi** va ijodiy olamining yuksakligini anglatadi.



“Bride”

Sariq fon esa **ilohiy nur va ilhom** manbai sifatida tasvirlangan. Figuradagi yumshoq chiziqlar va yuz ifodalari romantik-estetik kayfiyatni beradi.

Ayol obrazi orqali rassom **san’atga ilhom baxsh etuvchi timsolni** kiritadi. Bu, Sharq miniatyura an’analarida uchraydigan “go’zallik va ilhom” konsepsiyasining zamonaviy talqini sifatida ko’rilishi mumkin. Shuningdek, bu obraz “ilhom parisi” yoki san’atkor uchun zaruriy ma’naviy kuch manbai sifatida ham talqin qilinadi.⁹



“Yosh Kamoliddin Behzod”

⁹ Schimmel, A. *Mystical Dimensions of Islam*. Chapel Hill: UNC Press, 1975. – 112–118-betlar.

Xulosa.

Azamat Qo'chqarovning so'nggi yillarda yaratilgan asarlarida o'ziga xos umumiyliklar mavjud:

- **Dekorativ-ramziy uslub** — rassom fonni oddiy fon sifatida emas, balki ramziy qatlamni ochuvchi semantik ma'noni sifatida qo'llaydi. Masalan, "Bride" fonidagi uzum yoki "Between Hope and Fear"dagi qushlar.
- **Romantik realizm** — obrazlar realistik tarzda ishlansa-da, ular ruhiy yuksaklik, ideal go'zallik yoki ilohiylashtirilgan kayfiyat bilan beriladi. Masalan, "Layli va Majnun"da sevgi ramziy va ruhiy darajaga ko'tarilgan.
- **Sharqona ramzlarni tizimi** — uzum, qush, yorug'lik, an'anaviy liboslar orqali rassom Sharq falsafasi va sufiyona tasavvufiy qarashlarni tasviriyl san'at tili bilan ifodalaydi.
- **Ranglar falsafasi** — ko'k, yashil, sariq ranglar asosiy ustunlikka ega bo'lib, ular poklik, hayotiylik va ilohiy nur ramzidir. Bu rang uyg'unligi asarlarga ruhiy balandlik baxsh etadi.

Azamat Qo'chqarovning ramziy asarlarida sufiylik falsafasi sezilarli darajada mujassam: hudud va qush obrazlari yo'l ko'rsatish va ruhiy sayohatni, yopiq ko'zlar ichki tafakkurni, uzum va barglar ilohiy ishqni, Layli va Majnun esa poklanish va jamol ishqini ifodalaydi. Rassom bu ramzlarni milliy san'at an'analari bilan uyg'unlashtirib, o'ziga xos zamonaviy sufiyona badiiy til yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хакимов, А. Исламское искусство Узбекистана: философия и поэтика. Ташкент: Zilol buloq, 2022.
2. Qur'oni Karim, Naml surasi
3. Farididdin Attor. Mantiq ut-tayr. Tehron, 2011.
4. Schimmel, A. Mystical Dimensions of Islam. Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1975.
5. Chittick, W. Sufism: A Short Introduction. Oxford: Oneworld, 2000.
6. M. Olimjonova. XX ASR NAMANGAN TASVIRIY SAN'ATI. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / <https://oac.dsml-qf.uz> Volume 5 Issue 5 / October 2024.